

UDK: 504.054:911.3

Yarashova Dilshoda Axtam qizi

Buxoro Davlat Universiteti

Ekologiya va Geografiya kafedrasi o'qituvchisi

Abdumurodova Shohista

Buxoro Davlat Universiteti

Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi, 1- bosqich talabasi

**KOGON TUMANIDA SANOAT KORXONALARINING FAOLIYATI
NATIJASIDA YUZAGA KELGAN GEOEKOLOGIK O'ZGARISHLAR
VA AHOLI HAYOT SIFATI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI
KOMPLEKS O'RGANISH**

Anotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati Kogon tumanida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri, xususan, geoekologik holatdagi o'zgarishlar va ularning aholi hayot sifati ko'rsatkichlariga bevosita hamda bilvosita ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hududning tabiiy-geografik sharoitlari, sanoat tarmoqlarining joylashuvi, atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, tuproq va yer osti suvlarining holati, shuningdek, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganildi. Natijalar Kogon tumanida sanoatlashuv jarayoni geoekologik muammolarni kuchaytirayotganini va bu holat aholi salomatligi hamda turmush darajasiga salbiy ta'sir o'tkazayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: geoekologiya, sanoat korxonalari, Kogon tumani, atrof-muhit ifloslanishi, aholi hayot sifati, barqaror rivojlanish.

Yarashova Dilshoda Akhtam qizi

Bukhara State University

Lecturer, Department of Ecology and Geography

Abdumurodova Shohista

Bukhara State University

Faculty of Natural Sciences and Agrobiotechnology

1st year student, Geography Education Program

**COMPREHENSIVE STUDY OF GEOECOLOGICAL CHANGES
CAUSED BY INDUSTRIAL ACTIVITIES IN KOGON DISTRICT AND
THEIR IMPACT ON POPULATION QUALITY OF LIFE INDICATORS**

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the environmental impact of industrial enterprises operating in Kogon district of Bukhara region, with particular focus on changes in geoecological conditions and their direct and indirect effects on population quality of life indicators. The study examines the area's natural and geographical conditions, the spatial distribution of industrial sectors, atmospheric pollutant emissions, the condition of soils and groundwater, as well as demographic and socio-economic indicators. The results show that the process of industrialization in Kogon district is intensifying geoecological problems, which in turn negatively affects public health and living standards.

Keywords: geoecology, industrial enterprises, Kogon district, environmental pollution, population quality of life, sustainable development.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining jadal rivojlanishi iqtisodiy o‘rishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq sanoat korxonalarining hududiy jihatdan to‘g‘ri joylashtirilmasligi va ekologik talablarning yetarli darajada bajarilmasligi natijasida bir qator geoekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Kogon tumani Buxoro viloyatining muhim sanoat markazlaridan biri sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmagan.

Mazkur hududda neft-gazni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, transport va energetika bilan bog‘liq korxonalar faoliyati atrof-muhitga sezilarli bosim ko‘rsatmoqda. Shu sababli sanoat faoliyati va geoekologik holat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda uning aholi hayot sifati ko‘rsatkichlariga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv va sanoatlashtirish sharoitida hududlarning ekologik barqarorligi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari zich joylashgan hududlarda geoekologik muammolar keskinlashib, ular bevosita aholi salomatligi va hayot sifatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning Buxoro viloyati tarkibidagi Kogon tumani ham sanoat rivoji bilan birga ekologik bosim kuchayib borayotgan hududlardan biridir. Ushbu maqolada Kogon tumanida sanoat korxonalari faoliyati oqibatida yuzaga kelayotgan geoekologik o‘zgarishlar hamda ularning aholi hayot sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Sanoat korxonalarini rivojlantirish va shu bilan birga inson salomatligini asrash strategiyasini shakllantirish bo'yicha ham bir qator qarorlar O'zbekistonning "O'zbekiston-2030" strategiyasi va "Yashil iqtisodiyot" rivojlantirish konsepsiyasi kabi davlat dasturlari doirasida kiritilingan. Bu esa sanoatni barqaror rivojlantirish, joylarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlarida salomatlikni saqlash hamda aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan chora- tadbirlar mazkur investitsiyalarning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligini uqtiradi.

Sanoatning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq sanoat korxonalari faoliyati bilan birga atrof-muhitga tushayotgan antropogen yuklama ortib, geoekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, sanoat obyektlari joylashgan hududlarda ekologik holatning yomonlashuvi aholi hayot sifati ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Kogon tumanida sanoat faoliyati natijasida

yuzaga kelayotgan geoeologik o'zgarishlarni kompleks o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Kogon tumani temiryo'l stansiyasi sifatida qad ko'targan shaharcha hisoblanadi. Temiryo'l Dushanbe shahriga qadar yetib borilgach hamda Kogon- Buxoro temiryo'li qurilgach, Kogon transport tuguniga aylandi. Shu tariqa shahar iqtisodiy - ijtimoiy imkoniyatlari birmuncha o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Endilikda shaharda 15-20 dan ortiq sanoat korxonalari bor.

Kogon tumani tekislik hududda joylashgan bo'lib, quruq kontinental iqlim sharoiti bilan ajralib turadi. Yillik yog'in miqdorining kamligi va yoz faslining uzoq davom etishi ekologik muhitning antropogen ta'sirlarga sezgiriligini oshiradi. Hududda sanoat korxonalari, jumladan, qayta ishlash, energetika va transport infratuzilmasiga xizmat qiluvchi obyektlar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilsada, atrof-muhitning geoeologik holatiga muayyan darajada bosim o'tkazadi.

Sanoat korxonalari va transport vositalari faoliyati natijasida atmosferaga zararli gazlar va changsimon moddalar ajralib chiqadi. Bu holat havoning sifatini yomonlashtirib, ekologik vaziyatni murakkablashtiradi. Ayniqsa, sanoat hududlarida havoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lishi aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonalariga misol qilib "Siyoush tekstil", "Sanoat gilam", "Neft maxsulotlarini saqlash taqsimlash", "Kogon paxta tozalash" va boshqa korxonalar mavjud. Bu korxonalar aholi yashashi va istemoli uchun kerakli buyumlarni yetkazib, bir hisobda shu yerlik aholiga xizmat qilayotgan bo'lsada atmosferaga zararli gazlar chiqarmoqda. Bu esa inson salomatligi va atrof-muhit uchun zararli va salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Kogon tumanida sanoat va transport vositalari faoliyati natijasida atmosfera havosiga turli gazsimon va changsimon moddalar ajralib chiqadi. Azot va oltingugurt oksidlari, uglerod birikmalari havoning sifatini

yomonlashtirib, ekologik muhitning buzilishiga olib keladi. Bu jarayonlar uzoq muddatda havoning tabiiy tozalanish imkoniyatlarini cheklab, mikroiklim o'zgarishlariga sabab bo'ladi.

Xususan, "Siyovush tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 36 million dollarlik loyihasi o'tgan oyda ishga tushdi. Unda yiliga 40 ming tonna akril ip-kalava yigirish quvvati va 600 ta ish o'rni yaratildi.

Hozirgi korxona loyihaning birinchi bosqichi bo'lib, ayni paytda xorijlik hamkorlar bilan korxona faoliyatini kengaytirish ustida ish olib borilmoqda. Rejaga ko'ra, keyingi bosqichda akril tola hamda undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish to'liq mahalliyashtiriladi. Jami ish o'rni soni 1 ming 200 taga yetadi

2001-yilda tashkil etilgan "SANOAT GILAM" MChJ QK O'zbekistonda gilam ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlari: Buxoro va butun O'zbekistonda gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va bu mahsulotlarni eksport qilishdan iborat.

Kogon tumani Buxoro viloyatining muhim iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, sanoat va qayta ishlash sohalari tumanning iqtisodiy tuzilishida muhim o'rin tutadi. Tuman markazi Kogon shahridan iborat bo'lib, u Buxoro viloyatining sanoat, transport va logistika tarmoqlarida samarali aloqaga ega hududlaridan biridir.

KNAUF GIPS BUKHARA XK MChJ – bu qurilish materiallari, xususan gipsokarton (gypsum board) va boshqa quruq aralashmalarni ishlab chiqaruvchi korxona. U Kogon shahrida joylashgan va qurilish sanoatiga mahsulot yetkazib beradi.

Kogon shahrida **neft va yog' qayta ishlovchi korxonalar** mavjud bo'lib, ular mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sanoat ehtiyojlariga yo'naltiradi. Bu korxonalar viloyatning neft-gaz va qayta ishlash salohiyatiga munosib hissa qo'shadi.

Mintaqada paxta tozalash fabrikalari ham mavjud bo'lib, ular mintaqaviy paxta yetishtirish zanjirida muhim rol o'ynaydi. Paxta tolasi bo'yicha oldingi davrda ham tahliliy ma'lumotlar mavjud.

Buxoro viloyatida korxonalar soni bo'yicha Kogon tumanining sanoat salohiyati katta bo'lib, viloyatda umumiy sanoat korxonalarining soni respublikadagi boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda sezilarli ko'rsatkichga ega. Masalan, Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan katta- kichik korxonalar umumiy soni 2023–2025 yillar statistik ma'lumotlariga ko'ra o'rtacha 4,000 dan oshgan.

Kogon tumani korxonalarining faoliyati quyidagi yo'nalishlarda markazlashgan:

✓ Qurilish materiallari

- Gipsokarton, quruq aralashmalar kabi mahsulotlar – qurilish sohasida keng qo'llaniladi.

✓ Qayta ishlash sohalari

- Neft va yog' mahsulotlari qayta ishlash – mahalliy xom ashyoning qo'shimcha qiymatga aylanishiga xizmat qiladi.

✓ Paxta sanoati

- Paxta tozalash va qayta ishlash – qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Sanoat chiqindilarining noto'g'ri saqlanishi yoki nazoratsiz tashlanishi tuproq tarkibining kimyoviy muvozanatini buzadi. Natijada tuproq unumdorligi pasayadi, qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yer osti va yer usti suv manbalariga sanoat oqavalari tushishi suv sifatining yomonlashishiga olib kelib, ichimlik suvi xavfsizligiga tahdid tug'diradi. Bunday nohush holatlar tuman hududida tuproq va suv muhitining degradatsiyasini keltirib chiqaradi.

Kogon tumani hududidagi yangi ishlab chiqarish infratuzilmalari landshaft va tabiiy muhitning o'zgarishiga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, sanoat obyektlari atrofida tabiiy landshaftlar asta-sekin antropogen landshaftlarga almashmoqda. O'simlik qoplami qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hududning ekologik barqarorligini susaytiradi. Bu holat uzoq muddatli ekologik xavflarni yuzaga keltiradi.

Atrof-muhit ifloslanishi aholi salomatligining yomonlashuviga olib kelmoqda. Nafas olish tizimi kasalliklari, allergik holatlar va surunkali kasalliklarning ko'payishi hayot sifatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ekologik noqulayliklar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi migratsiyasini kuchaytirishi mumkin.

Geoekologik holatning yomonlashuvi aholi salomatligida, ijtimoiy farovonlik va demografik jarayonlarda o'z aksini topmoqda. Tuman bo'yicha allergik, bronxial va yurak-qon tomir kasalliklarining ko'payishi ekologik omillar bilan bog'liq ekani kuzatiladi. Shuningdek, ekologik noqulay hududlarda yashovchi aholining migratsiya faolligi yuqoriroq ekani aniqlangan.

Hududdagi muammolarni yumshatish va barqaror rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish doirasida:

- sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- atmosferaga chiqariladigan chiqindilarni qat'iy nazorat qilish;
- yashil hududlar va sanitariya-himoya zonalarini kengaytirish;
- aholining ekologik madaniyatini oshirish masalalari atroflicha o'rganilishi kerak

Kogon tumani hududida sanoat korxonalarining faoliyati natijasida yuzaga kelgan geoekologik o'zgarishlar anchagina va bular aholi hayot sifati ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Atrof - muhit uchun sezilarli xavf tug'dirayotgan bunday holatlarni oldini olish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar inobatga olinishi kerak;

- "Yashil" sanoatni rivojlantirish: Sanoat korxonalarida ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish.
- Sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi: Ishchilar salomatligini himoya qilish, ish joylarida xavfsiz sharoit yaratish va kasbiy kasalliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar.
- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: Korxonalar xodimlarining sog'lig'ini yaxshilash, jismoniy tarbiya va sportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tadbir, marafon va topshiriqlar tayinlash.
- Barqaror rivojlanishga qaratilgan investitsiyalar: Sanoatning yangi "drayver" sohalarini rivojlantirishda inson salomatligi va ekologik me'yorlarni hisobga olish.

Kogon tumanida sanoat korxonalarining faoliyati geoekologik muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatib, aholi hayot sifati ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Tadqiqot natijalari hududda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ekologik siyosatni kuchaytirish va sanoat faoliyatini geoekologik jihatdan optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpulatov A.T. Hududiy geoekologik jarayonlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Karimov I.A., Mirzayev M.M. Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.
3. Qodirov R.Q. Sanoat geografiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2009.
4. Nazarov I.N. Aholi hayot sifati va ekologik xavfsizlik. — Toshkent: Fan, 2018.
5. Xudoyberganov A.X. Ijtimoiy-ekologik muammolar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
6. Hakimov U.A. Buxoro viloyatining tabiiy-geografik sharoiti va ekologik muammolari. — Buxoro, 2017.

7. Yarashova D.Sh. Buxoro viloyatining geoekologik muammolari. — Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro davlat universiteti, 2024.
8. www.stat.uz